

**Badiiy tarjima jarayonida matnning stilistik bo'yoqdorligini o'rganish va
tahlil qilish**

Azizova Madina Bahromjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
azizova-madina@internet.ru

Annotatsiya: Ushbu tezisda badiiy tarjimadagi stilistik bo'yoqdorlikni o'rganish va tahlil qilish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alliteratsiya, ritmik moslashuv, qofiyadoshlik, muqobililik, ekspressivlik.

Tarjima janriy-stilistik jihatiga ko'ra ikki turga bo'linib, biri sohaviy (ilmiy, texnik, publitsistik va hokazo) tur bo'lsa, yana biri esa badiiy tarjima turi hisoblanadi.

Badiiy tarjima deyilganda shubhasiz biz nasriy (poeziya) va nazmiy(poetika) janrdagi matnlarning tarjimasini tushunamiz. Bu ikki janrdagi matnlarni tarjima qilish jarayonida tarjimon albatta bir qancha tafovutlarga duch keladi.

Bu tarjimaning ikki asosiy turi bo'lib, har qanday tarjima shu turlardan biriga aloqador bo'lishi tabiiy.

Tarjimaning birinchi turi nasriy ya'ni proza janrida yozilgan mantlar tarjimasi bo'lib, u nazmiy tarjimadan, ya'ni she'riy tarjimadan tubdan farq qiladi.

1. Nasriy tarjima mohiyati, ya'ni uning lisoniy jihatlari quyidagicha:

1) nasriy matnlar bilan ish ko'rildi

2) nasriy tarjimada o'ziga xos grammatik, leksik, stilistik va frazeologik jihatlar mavjud

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABHIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 1, Issue 8, Dekabr 2023

3) ushbu tarjima uchun cheklashlar (ma'lum shakl va mazmunni uyg'unlashtirish va ohang qolipiga tushish kabi talablar yo'q)¹

²2. Nazmiy tarjimaning lisoniy jihatlari quyidagicha:

- 1) tarjimada nazmiy matn, ya'ni she'riy matn bilan ish ko'rildi
- 2) tarjimada o'ziga xos nazmiy ohangdorlik ta'minlanishi shart
- 3) tarjimada vaznni tanlash va unga rioya qilish mas'uliyati mavjud
- 5) tarjima tiliga assonans, alliteratsiya kabi va boshqa fonetik stilistik vositalarni tarjima qilish va ulardan kuzatilgan maqsadga tarjima tilida kam erishilish

Tarjimada asliyatdagi kabi estetik zavqni yaratish va asar personajlari ichki va tashqi dunyosini mukammal tasvirlab berish uchun tarjimon asardagi jumlalarning grammatik,stilistik qurilishini o'zgartirishga, turli tarjima usullariga murojaat etishiga to'g'ri keladi. Biroq, shu bilan bir qatorda adekvat yoki ekvivalent tarjima usullaridan chetlashmagan holda ish olib borish talab qilinadi.

³Har qanday stilistik-ekspressiv vositalar adabiy matnning milliy xususiyatlari aniqlab beradigan lingvistik, frazeologik va sotsial-madaniy so'zlar bazasi asosida shakllanadi. O'zining avvalgi bilimlarga tayangan holda ,tarjimon madaniyatga xos so'zlarning ma'nosini, ularning o'z tilidagi qo'llanishlarini saqlagan holda yetkazishi kerak. Tarjimon stilistik jihatdan chegaralangan so'zlarni xoh stilistik, xoh to'g'riroq'i, tildan tashqari qoliplarni saqlagan holda yetkazishga e'tibor qaratishi lozim. Biroq, tarjima jarayoni juda nozik bo'lib, matnni qabul qiluvchilarning milliy bo'yodkorlikni

¹ SHE'RIY ASARLARNING CHET TILINI O'RGANISHDAGI TA'SIRI. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS .Volume-23_Issue-2_February_2023. Rustamov Ilxom Tursunovich

² Tarjimashunoslik. Hamidov.X.X

³ Tarjima nazariyasi va amaliyoti. E.Ochilov.Toshkent-2012.34-b.

tushunishi uchun tarjimon keraklicha bilimga ega bo'lishi kerak. Bunda stilistik birliklar madaniy so'zlarni ifodalashda vositachi sifatida rol o'ynaydi. Adabiy matnda kontekstning emotsionalligini yaratish uchun ekspressiv vositalar stilistik nutq uslubiy foydalanishning ko'p funksiyalilagini o'z ichiga oladi.⁴

Badiiy tarjima jarayonida stilistikaning aynan ekspressivlik ma'nosiga e'tibor berilganda, asarning badiiy bo 'yoqdligi yana ham yorqinroq ko 'rinadi, chunki stilistikaning ekspressivligi bu- til materialining emotsionallik va ifodaviylik xususiyatlarini o 'z ichiga oladi.[3]

Masalan, badiiy asar albatta badiiy uslubga ko 'ra yaratiladi va badiiy uslubda keng qo 'llanuvchi fonetik va leksik stilistik vositalarsiz asar mazmuni, stilistik bo'yoqdligini ta'minlash amalga oshmaydi.Xususan, fonetik stilistikaning asosiy elementlari bo 'lmish qofiya, alliteratsiya, assonans vositalari shular jumlasiga kiradi.

Masalan, she'riy misralardagi ayrim so'zlarning , ba'zan qo'shimchalarning bir xilda o'zaro ohangdoshli bo'lib kelishi qofiya deyiladi. Qofiyalar a-a-a-b, a-b-a-b, a-a-b-a va hokazo ko'rinishlarda boladi. Misol tariqasida quyidagi she'riy misralarni keltirish mumkin:⁵

Oh, you may not think I'm pretty,(a)

But don't judge on what you see(a)

I'll eat myself if you can find,(b)

A smarter hat than me.(a) ("Garri Potter va falsafa toshi").J.K.Rovling)

⁴ STILISTIK VA PRAGMATIK JIHATDAN TARJIMANI TALIL QILISH. Sadirova Sitora.<https://www.Intereuroconf.com>

⁵ Saodat Sultonsaidova, O'lmas Sharipova.O'zbek tili stilistikasi.

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABHIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 1, Issue 8, Dekabr 2023

Ko 'rib turganimizdek, ushbu ingliz tilidagi qofiyalar ham xuddi o 'zbek tilidagi qoidalar kabi bir xil tartibda keladi. Proza janriga misol bo 'luvchi ushbu parchada qofiya vositasi she'riy asarni yanada jarangdorligini, badiiy bo 'yoqdorligini ta'minlashga hissa qo 'shuvchi asosiy vosita bo 'lib kelmoqda. Tarjimondan esa asl varianttan tarjima tiliga o 'girishda ham ushbu bo 'yoqdorlikni saqlab qola bilish talab etiladi. Quyida she'riy parcha tarjimasini ko 'rib chiqamiz:

Hunukdirman ehtimol,(a)

Qiyofamni aybsitmang.(b)

Menday dono shlyapa yo 'q,(v)

Qidirib, sarson bo 'lmang.(b) (Shokir Dolimov,tarj.)

Ko 'rib turganimizdek, tarjimada qofiya tartibi to 'liq bir xilda emas, lekin qofiyadoshlik qoidasidan ham chetga chiqilmagan. Agar qofiyadosh so 'zlar ushbu parcha tarjima variantida qo 'llanilmasa, parcha bo 'yoqdorligi xiralashadi, ohangdorlik yo 'qoladi va nazmiy asar o 'z funksiyasini bajarolmay qoladi.

Alliteratsiya san'ati ham juda ko 'p badiiy asarlarda keng qo 'llaniladi. Alliteratsiya lotincha «litera» so 'zidan olingan bo 'lib, she'rdagi har bir misrada bir xil undosh tovushlaming takror ishlatilishi alliteratsiya vositasini vujudga keltiradi. Alliteratsiya vositasi qisman nasriy asarlarda ham uchraydi. Misol qilib, J.Rovlingning "Garri Potter" romanlar turkumida qo 'llanilgan alliteratsiya vositalarini ham keltirishimiz mumkin. Moaning Myrtle, Severus Snape, Treacle Tarts va xokazo misollarni berishimiz mumkin. Ushbu misollar tarjimon tomonidan quyidagicha tarjima qilingan: Dilgir Mirtl, Severus Snegg, quyuq shinnili tort tarzida tarjimaa qilingan. Ko 'rinib turibdiki, tarjimada alliteratsiya vositasi saqlab qolinmagan, chunki fonetik stilistik vositalarni tarjimasida adekvat so 'zni topish juda qiyin vazifa hisoblanadi.

Metafora — grekcha so 'z bolib, ko 'chim degan m a 'noni bildiradi.

Nutqqa obrazlilik, ekpressiv bo 'yoq berish niyatida narsa va hodisalar orasida o 'xshashlikka asoslanib, so 'z yoki iboralarni ko 'chma

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABHIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 1, Issue 8, Dekabr 2023

m a'noda ishlatish metaforadir.[5] Masalan, "Harry was a punchbag of Dudley".(Garri Potter va falsafa toshi, J.K.Rovling).(Garri Dadli uchun boks grushasi edi.tarj.) Bu yerda "punchbag" metafora hisoblanadi, ya'ni Garrining amakivachchasi bo 'lmish Dadli ismli baquvvat, semiz bola uni doim haqoratlab, urishni yaxshi ko 'rgan, bu jihattan Garri qo'l bilan urib mashq qilinadigan boks qopiga o'xshatilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, tarjima qilinayotgan asar mazmuni tarjimon tomonidan chuqur tahlil qilinib, asl ma'no anglangan holda, satrlar tushirib qoldirilmagan tarzda asliyatdagi shakl bilan bir xil tuzilishda tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo 'ladi. Bunda badiiy asar stilistikasiga, murojaat qilingan stilistik vositalar tarjimasiga yanada e'tibor bilan yondashilsa, asar stilistik bo'yoqdotligi oshadi, asar mazmun-mohiyati kitobxonga yana ham tushunarli va ta'sirli tarzda yetkazib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saodat Sultonsaidova, O'lmas Sharipova. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent-2009. -39 b.
- 2.M.Xalilova.O'zbek tili stilistikasi. Farg'ona-2009.-6-8 b.
- 3.I.K.O'sarov.Tarjimaning stilistik muammolari. G'aybull Salomov and Uzbek school of translation,13-dekabr.2022.<https://doi.org/10.5281/zenodo.7481608>.-3-8 b.
- 4.Musayev Q.Tarjima nazariyasi asoslari. T.:Fan-2005.-352 b.
- 5.<https://avareurgente.com/uz/fortuna-rim-taqdir-va-omad-mabudasi>.